FORS NOMALARI



Sharl Lui Monteskye

821.133.1-31214
M-73

Fransuz adabiyoti javohirlari

Monteskye



Fors nomalari

Toshkent-2024

UO'K 821.133.1-312.7
KBK 84(4Фр)-44
M 73

Sharl Lui, Monteskye
Fors nomalari [Matn] // Sharl Lui Monteskye. – Toshkent, "TRUST AND SUPPORT" nashriyoti, 2024. – 336 b.

ISBN 978-9910-9548-4-9

Fransuz tilidan
Shoazim Minovarov
tarjimasi

Mustaqillik sharofati bilan o'zbekistonliklar jahon adabiyotining eng sara namunalarini bevosita xorijiy tildan ona tillariga o'girilgan holatda mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

O'zbeklar hamda fransuzlarni qator mushtarakliklar bog'lab turadi. Mehmondo'stlik, samimiyat, ilm-ma'rifatga chanqoqlik, bag'rikenglik kabi xislatlar har ikki xalqning milliy xususiyatlari sanaladi. Shundan bo'lsa kerak, o'zbeklar azaldan fransuz adabiyoti namunalarini sevib o'qiydilar. Graf Monte-Kristo, Uch mushketyor, Dyurua, Gobsek, Guinplen, Gavrosh, Gorio ota, Mondo va boshqa qator qahramonlari orqali Dyuma, Mopassan, Balzak, Gyugo, Le Klezio kabi mashhur yozuvchilarning asarlari o'zbeklarning xonadonlariga va qalblariga kirib ulgurdilar.

Sizga taqdim qilinayotgan to'plamga fransuz mumtoz va yangi zamon adabiyotining eng sara asarlari kiritildi. An'anaga ko'ra ularda insoniylik, yaxshilik, bag'rikenglik va kelajakka ishonch bilan qarashga da'vatga keng o'rin beriladi.

UO'K 821.133.1-312.7
KBK 84(4Фр)-44
ISBN 978-9910-9548-4-9

TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANI
№ 2025/N8-29
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

XVIII asrda ijod qilgan buyuk fransuz yozuvchisi Monteskyeni adabiy tanqidchilar "Nozik tab", deb ataganlar. E'tiboringizga havola qilinayotgan "Xatlar" janrida bitilgan "Fors nomalari" asari yozuvchining shoh asari hisoblanadi.

Monteskyening e'tiroficha, maktublarni yozgan eronliklar bilan u qo'shni bo'lgan va asar uzoq yillik suhbatlar hamda tanlab olingan maktublar asosida jam qilingan.

Xolis o'qish, o'rganish, o'zga yurt madaniyati va ma'rifatini, turmush tarzi va tarixidan xabardor bo'lish inson qalbini boyitadi. Xorijiy yurtlarda yashayotgan insonlar hamjamiyatlari bilan do'stona aloqalarning asosiy shartlaridan biri ham ana shunda.

1-MAKTUB
O‘ZBEKDAN DO‘STI RUSTANGA, ISFAHON

Qumda bir kun bo‘ldik, xolos. O‘n ikki payg‘ambarning volidasi bibi Fotimaning qabrini ziyorat etgach, yana yo‘lga tushdik va kecha, Isfahondan chiqqanimizning yigirma beshinchi kuni Tabrizga yetib keldik.

Rika ikkalamiz bilimga chanqoqlik tufayli osuda hayotdan voz kechib, hafsala bilan donishmandlik axtarib, o‘z vatanini tark etib yo‘lga chiqqan ilk eroniylardirmiz ehtimol.

Biz farovon podshohlik sarhadida tug‘ildik, biroq ushbu sarhad chegaralari bilimlarimizning ham sarhadlari, Sharq yog‘dusining esa yo‘limizni yoritayotgan yagona yog‘du ekanligiga ishonmadik.

Safarimiz to‘g‘risida qanday gaplar yurganini menga yozib yubor; faqat tilyog‘lamalik qilma: ko‘pchilik ma’qullayabti, deb o‘ylamayman. Maktubingni Erzirumga jo‘nat, u yerda bir necha kun bo‘laman. Omon bo‘l, qadrdonim Rustan; imoning komil bo‘lsinki, dunyoning qaysi go‘shasida bo‘lmay, sodiq do‘sting bo‘lib qolaman.

Tabriz. Safar oyining 15-kuni, 1711-y.

2-MAKTUB
O‘ZBEKDAN HARAM OG‘ASIGA, ISFAHON

Sen eng go‘zal Eron ayollarining qo‘riqchisisan; o‘zimning eng qimmatli boyliklarimni senga ishonib topshirdim; faqat men uchungina ochiladigan ardoqli eshiklarning

kaliti endi sening qo‘lingda. Qalbim javohirxonasini qo‘-riqlayotgan ekansan, ko‘nglim xotirjam va ushbu ehtiyot chorasidan mamnundir. Uni tun sukunatida ham, kunduzgi olag‘ovurda ham ehtiyotlagaysan; ezgulik ikkilangudek bo‘lsa, charchash bilmas jonkuyarliging unga tasalli bersin. Sen muhofaza qilayotgan zaifalar burchlarini unutmoqni orzu ham qilmasinlar. Har qanday illatga ofat va sadoqatga ustun bo‘lgin.

Sen ularga buyruq beruvchi farmonbardorsan; ularning barcha irodalarini itoatkorlik bilan bajo keltir va xuddi shunday itoatkorlik bilan ularni haramdagi tartib-qoidalariga bo‘ysunishga majbur qilgin. Ularning eng haqoratomuz xizmatlarini bajar; amr-farmonlariga tabiiy hurmat va qo‘rquv bilan bo‘ysun; barchalariga qullarining qulidek xizmat qil. Ammo sharm-hayo va kamtarinlik qoidalarining susayayotganligidan tashvishlangudek bo‘lsang, qudrat va kuch yana o‘zingga qaytsin va ularni meningdek boshqar.

Seni qanday haqirlikdan sug‘urib olganligim — qullarimning eng ojizi bo‘lganliging, seni ushbu vazifaga qo‘yib, qalbimning eng huzurbaxsh narsalarini ishonib topshirganligimni hamisha yodingda tut. Muhabbatimni baham ko‘rguvchilar huzurida o‘zingni mo‘min-qobil tut, biroq, ayni paytda, ularga favqulodda qaramlikda ekanliklarini eslatib tur. Ularga turli-tuman gunohsiz o‘yin-kulgilar tashkil qil; xavotirlanishlarini tarqatib yubor; musiqa, raqslar, ajoyib ichimliklar bilan xushnud qil; tez-tez birgalikda yig‘ilib turishga ko‘ndir. Mabodo bog‘ga chiqishni ixtiyor etsalar, olib borishing mumkin, lekin yo‘lda ularning oldiga chiqqan har qanday erkak kishini bandi qiling-

lar. Ularni ruhiyat pokligining ramzi bo'lmish ozodalikka da'vat qil. Gohida ularga mening to'g'rimda gapirib ber. O'zlari husn baxsh etadigan o'sha maftunkor joyda ularni qayta ko'rishni istagan bo'lardim.

Tabriz. Safar oyining 18-kuni, 1711-y.

3-MAKTUB
ZASHIDAN O'ZBEKKA, ISFAHON

Haram og'asiga bizni bog'ga olib borishni buyurdik; bizga hech narsa bo'lgani yo'q, buni senga o'zi so'zlab beradi. Daryoni kechib o'tgach va taxtiravonlardan tushgach, odatdagidek qutilarga o'tirdik, ikkita qul bizni yelkalarida ko'tarib bordi va bizga hech bir kimsaning nazari tushmadi.

Azizim O'zbek, sen bilan o'tkazgan ko'ngilxushliklarimni tinimsiz eslatuvchi, istaklarimni yangi kuch bilan qayta qo'zg'atuvchi haramingda, o'sha joylarda endi qanday yashayman? Xonama-xona daydib seni izladim, biroq hech qayerda o'tmishga aylanib qolgan baxtimni eslatuvchi shafqatsiz xotiradan o'zga hech narsani va seni topmadim. Gohida seni ilk bor bag'rimga olgan xonada, gohida esa, xotinlaring o'rtasida ko'tarilgan qattiq janjalni bosti-bosti qilgan joyda bo'ldim. Har birimiz o'zgalardan ko'ra go'zalroq bo'lishga harakat qilardik. Tasavvur qilish mumkin bo'lgan barcha qimmatbaho taqinchoqlarni taqib va pardoz-andozlardan keyingina huzuringda paydo bo'lardik. San'atimiz mo'jizasiga mahliyo bo'lib boqarding; senga yoqish uchun bo'lgan bizdagi o'tli ishtiyoqni ko'rib quvonarding. Lekin ko'p o'tmay, sun'iy go'zallik tabiiy fusunkorlikka joy bo'shatib berishini istab qolding: barcha

mehnatlarimizni ostin-ustun qilib yubording. Senga yoqmay qolgan taqinchoqlarni yechib tashlashga, huzuringda tabiiy ma'sumaligimiz bilan hozir bo'lishga to'g'ri keldi. Men har qanday hayoni yig'ishtirib qo'yib, faqat o'z g'alabam haqida o'yladim. Sen baxtlisan, O'zbek! Qanchadan-qancha go'zallarni imtihon qilding! Shodonlikdan shodonlik sari bording: qalbing uzoq ikkilanar va qayerda to'xtashni bilmasdi; har yangi huzur-halovat sendan o'lpon talab qilardi: bir lahza ichida bo'salaring bizni chulg'ab olar, eng sirli joylarimizgacha sinchkov nazaring tushardi; har lahzada bizni ming xil holatda turishga majbur qilib, yangi-yangi farmoyishlar berishdan charchamasding, biz esa doim bo'ysunardik. Azizim O'zbek, tan olishim kerakki, meni senga yoqishga izzattalablikdan ko'ra jonli ehtiros ko'proq undardi. Sekin-asta qalbingning sohibasi bo'lib borayotganimni anglar edim; avvaliga meni mahv etding, keyin tashlab qo'yding; so'ng huzurimga qaytib kelding va men seni ushlab qololdim: zafar men tomon yuzini to'liq burdi, raqibalarimni esa umidsizlik qopladi. Ikkimizdan boshqa dunyoda hech kim yo'qdek ko'rinardi bizga: atrofimizga bir nazar tashlab qo'yishni o'zimizga ep ko'rmasdik. Nechun Yaratgan raqibalarimga senga bo'lgan jo'shqin muhabbatimga guvoh bo'lish uchun yetarli jasorat bermadi! Jo'sh urayotgan ehtiroslarimni ko'rganlarida edi, o'zlaridagi va mening muhabbatim orasidagi farqni his qilgan bo'lardilar: men bilan malohatda raqobat qila olishlariga, ammo, ehtirosda bellasha olmasliklariga ishonch hosil qilgan bo'lur edilar...

Biroq men qayerdaman? Besamar ushbu hikoya qayerlarga olib borarkin? Sevish-sevilishdan mahrum bo'lish, baxtsizlik, sharmisorlikni anglatmaydimi? Yovvoyilar

mamlakatlarini ko'rib kelish niyatida bizni tark etding, O'zbek. Nahotki, sevilishni hech narsaga arzimaydi deb o'ylasang? Afsus, nimalardan mahrum ekanligingni anglab yetolmaysan! Ohu-nadomatlarimni hech kim eshitmaydi; ko'zlarimdan yosh oqadi, ammo artib qo'yolmaysan; nazarimda, haramda muhabbat nafasi kezmoqda, sen esa sovuqqonlik bilan undan tobora uzoqlashmoqdasan! Eh, azizim O'zbek, baxtiyor bo'lish nima ekanligini bilganingda edi.

Fotimaning yotog'i.
Muharram oyining 21-kuni, 1711-y.

4-MAKTUB
ZEFIDAN O'ZBEKKA, ERZIRUM

Alqissa, bu qora maxluq meni mushkul ahvolga solib qo'yishga qaror qildi: u zo'ravonlik bilan cho'rim Zelidani, menga sadoqat bilan xizmat qiluvchi, epchil qo'llari hamma joyga go'zallik va nafosat kirgizuvchi Zelidani tortib olishga qaror qildi. Bu judolik dardi yetmaganday, u Zelidaga tuhmat ham qilmoqchi bo'ldi. Cho'riga bo'lgan ishonchim sabablarini bu xoin fitnadan deb hisoblaydi, negaki men uni muttasil tashqariga quvib chiqaraman; eshik ortida turib zerikadi shekilli, men tasavvur ham qila olmaydigan narsalarni eshitdim yoki ko'rdim deb tasdiqlashga jur'at etmoqda. Peshonam sho'r ekan! Na uzlatga chekinish, na ezgu fazilatlar meni uning bema'ni shubhalaridan xalos qilolmaydi; iflos zanji meni hatto sening qalbingda ham ta'qib etmoqda va o'sha yerda ham o'zimni himoya qilishga majburman! O'zimni oqlash darajasigacha tubanlashmoqchi emasman, zero, o'zimni juda hurmat-

layman: fe'l-atvorim uchun o'zingdan boshqa, muhabbatingdan o'zga, mening ishqimdan bo'lak va — qadrdonim O'zbek, buni senga aytishim shartmikan, — ko'z yoshlarimdan tashqari kafolat istamayman.

Fotimaning yotog'i.
Muharram oyining 29-kuni, 1711-y.

5-MAKTUB
RUSTANDAN O'ZBEKKA, ERZIRUM

Isfahonda hammaning og'zida sen: faqat sening safaring haqida gapirishmoqda. Ba'zilar uni yengiltaklikka, ba'zilar esa zerikkanlikka yo'ymoqdalar. Seni faqat do'stlaring himoya qilishmoqda, lekin ular hech kimni ishontira olmayaptilar. Qanday qilib xotinlaring, qarindosh-urug'laring, do'stlaring, vataningni tashlab, eronliklarga notanish yurtlarga jo'nab ketganingni tushunolmayaptilar. Rikaning onasini yupatib bo'lmayapti; u sendan o'z o'g'lini talab qilmoqda; uning so'zlariga qaraganda, uni sen o'g'irlaganmishsan. Menga kelsak, azizim O'zbek, tabiiyki, sening barcha harakatlaringni ma'qullashga menda moyillik bor, ammo ketib qolganingni kechirolmayman, har qanday vaj ko'rsatganingda ham, qalbim uni hech qachon qabul qilmaydi.

Omon bo'l, meni unutma.

Isfahon.
Robi'ul-avval oyining 28-kuni, 1711-y.

6-MAKTUB
O‘ZBEKDAN DO‘STI NOSIRGA, ISFAHON

Yerevanga bir kunlik masofa qolganda, Eron hududini tark etib, turklarga qarashli yerlarga qadam qo‘ydik. O‘n ikki kundan so‘ng Erzirumga yetib keldik; bu yerda uch-to‘rt oy qolamiz.

Nosir, tan olishim kerakki, Eron nazardan yo‘qolgach va biz makkor usmonlilar orasiga tushgach, qandaydir pinhoniy bir dardni his qildim. Bu johillar mamlakatiga kirib borgan sayin o‘zim ham johillashib borayotganday bo‘ldim.

Vatanim, oilam, do‘stlarim ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldilar; menda mehr uyg‘ondi; ko‘nglimga qandaydir notinchlik tushdi va o‘zimga ruhiy osudalik baxsh etmoqchi bo‘lib amalga oshirayotgan tadbirimni haddan oshirib yuborganimni angladim.

Xotinlarimni eslash menga ayniqsa og‘ir, ular haqida o‘ylaganim hamono g‘am-anduh menga azob beradi.

Nosir, gap ularni sevishimda emas: bu borada men shunchalik hissizmanki, hech qanday xohishga o‘rin qolmaydi; o‘zim yashagan gavjum haramda muhabbat nima ekanini bildim va uni o‘zim barbod qildim; biroq aynan sovuqqonligim oqibatida bir pinhoniy rashk paydo bo‘lganki, u meni o‘z komiga tortmoqda. Deyarli o‘z ixtiyorlariga tashlab qo‘yilgan xotinlar galasini tasavvur qilaman; ularni qo‘riqlash uchun qoldirilgan insonlar yoppasiga jirkanchlar. Qullarim sadoqatli bo‘lgan taqdirlarida ham o‘zimni xatardan xoli deb hisoblashim mushkul bo‘lar-

di. Ular sodiq bo'lmasalar-chi, unda nima bo'ladi? O'zim kezmoqchi bo'lgan uzoq mamlakatlarda qanday noxush xabarlar olarkinman? Bu shunday dardki, do'stlarim unga davo topolmaydilar: haram shunday joyki, uning mahzun sir-u sinoatini ular bilmasliklari lozim. Ha, qo'llaridan nima ham kelardi? Oshkora jazo berishdan ko'ra, qozonni yopiqligicha qoldirishni ming karra afzal ko'rmasmidim. Barcha iztiroblarimni to'kib soldim, qadrdonim Nosir; hozirgi ahvolimda meni yupatadigan yagona narsa ham shu.

Erzirum.
Robi'ul-avval oyining 10-kuni, 1711-y.

7-MAKTUB
FOTIMADAN O'ZBEKKA, ERZIRUM

Qadrdonim O'zbek, jo'nab ketganingga ham ikki oy bo'ldi, men esa shunchalar aftodaholmanki, yo'qligingga sira ishongim kelmaydi. Sen shu yerdasan degan xayolda butun haramni aylanib chiqaman; yo'qligingga hech ko'nika olmayapman. Seni og'ushiga olishga odatlangan, senga o'z nazokatini isbotlashdan o'zga g'ami bo'lmagan, nasl-nasabi hur, biroq muhabbatingning quli bo'lgan ayoldan yana nima kutish mumkin?

Senga turmushga chiqqunimga qadar erkak zotining yuziga nazarim ham tushmagan edi; hozir ham men ko'rishim mumkin bo'lgan yagona erkak o'zingsan; mana bu jirkanch haram xodimlarini erkak qatoriga qo'shmayman, ularning eng kichik qusuri umuman erkak emasliklarida. Chehrang chiroyini ularning xunuk basharasi bilan qiyoslar ekanman, o'zimni baxtiyor emas deb hisoblay olmayman: tasavvurim sendan ko'ra afsunkor siymoni yaratish-

ga qodir emas. Xudo haqqi, O'zbek, agar majburiy ushbu tutqunlikdan xalos bo'la olganimda, atrofimdagi soqchilardan qocholganimda, ushbu ming xil millat yashovchi poytaxtda bironta erkakni tanlashga ruxsat berganlarida, faqat seni tanlagan bo'lardim. Butun olamda faqat o'zing muhabbatga loyiqsan.

O'ylama tag'in, yo'qligimda menga aziz bo'lgan chiroyiga ahamiyat bermaydi deb. Biron kimsaga ko'rinish bermasam ham, taqinchoqlarim ko'zlaringni quvontirmasa ham, har holda yoqimtoy bo'lish odatimni tark etganim yo'q. Eng muattar atirlarni sepgachgina o'rnimga yotaman. Og'ushimga kelganingdagi o'sha baxtli onlarni eslayman; aldamchi tush muhabbatim sohibini namoyon etadi; umidlarga aldangan xayollarim istaklarim ummonida g'arq bo'ladilar. Ba'zan mashaqqatli safar joningga tegib, huzurimizga qaytib kelasan deb o'ylayman. Na o'ngim va na tushim bo'lgan xayollar og'ushida tunlarni o'tkazaman; atrofimdan seni izlayman, mendan o'zingni olib qochayotgandek tuyulasan; nihoyat, vujudimni qamrab olgan otash xayolot dunyosidan meni o'z shuurimga qaytaradi. O'shanda hissiyotlar og'ushida shunday to'lg'onamanki...

Ehtimol ishonmassan, O'zbek: bunday yashash mumkin emas; tomirlarimda o't oqmoqda. Eh, shunchalar aniq his qilayotgan narsalarimni nechun yaxshi ifoda qila olmayotirman! Mana shu daqiqalarda, O'zbek, birgina bo'sang uchun olamga podshohlikni baxshida etgan bo'lardim. Shunday otashin hissiyotlar sohibasi bo'la turib, ularga sherik bo'la oladigan yagona erkakdan mahrum bo'lgan ayolning tolei naqadar nigundir! O'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan, o'zini yupantirish uchun hech vaqosi yo'q, nadomatlar va o'tli ehtiroslar og'ushida tanho yashashga

majbur; o'zi tolesiz bo'lgani holda o'zganing ham baxtiga xizmat qilishdek quvonchdan mahrum bu ayol, erining baxti uchun emas, or-nomusi uchun qo'riqlanadigan ushbu haramga bir bezak xolos.

Siz, erkaklar o'ta berahmsizlar! O'tli hissiyotlar sohibalari bo'lishimiz sizlarni maftun qiladi. Bizlarga hissiyotsiz kimsalarga qilgandek muomala qilasizlar-u, befarqlik qilsak g'azab otiga minasizlar; uzoq muddat asoratga solib kelingan hissiyotlarimizni sizni ko'rishimiz bilanoq qayta jonlanadi deb o'ylaysizlar. Muhabbatga sazovor bo'lish oson emas; maqsadingizga fazilatlaringiz bilan emas, og'ir qismatimizdan, nochorligimizdan osongina erishishni afzal ko'rasiz.

Omon bo'l, azizim O'zbek, omon bo'l. Bilib qo'y: men faqat seni ardoqlash uchun yashayman: qalbim sening yoding ila band; judolik seni unutishga aslo meni majbur qila olmaydi; shundoq ham o'tli muhabbatimni u yana ham alanga oldirsa ehtimol.

Isfahon.
Robi'ul-avval oyining 12-kuni, 1711-y.

8-MAKTUB
O'ZBEKDAN DO'STI RUSTANGA, ISFAHON

Maktubingni menga Erzirumda berishdi; hozir shu shahardaman. Safarim shov-shuvga sabab bo'lishini bilgandim; ammo bu istihola meni to'xtata olmadi. Kimning mulohazasiga quloq osay, g'animlarim tarqatayotgan mish-mishlargami yo qalbim da'vatigami?

Birinchi bor saroyga qadam qo'yganimda hali yosh bola edim. Aytishim mumkinki, u yerda qalbim to'g'ri yo'ldan ozmadi; hatto, ulug' niyatlarni o'z oldimga maqsad qilib qo'yoldim, ezgulik qilishga jur'at etdim. Illatni his qilishim bilanoq, u yerdan uzoqlashdim, ammo uni fosh qilish maqsadida yana saroyga kirdim. Men naqd taxtning poyiga qadar haqiqatni olib kirdim. Saroydagilar hali eshitmagan tilda so'zladim, tilyog'lamalikni parokanda qildim va ayni paytda laganbardorlar va ta'zimdagilarni hayratga soldim.

Lekin samimiyligim tufayli g'animlar orttirganimni, hukmdorning marhamatiga erishmay, vazirlarning hasadiga duchor bo'lganligimni, bu fitna saroyda qolishga ozgina or-nomus undayotganligiga ishonch hosil qilgach, u yerdan ketishga qaror qildim. O'zimni ilm bilan qiziqqandek qilib ko'rsatdim va buni shunday amalga oshirdimki, ma'rifatga chinakamiga ishqim tushdi. Turli g'avg'olarga aralashishni bas qilib, qishloqdagi uylarimdan biriga jo'nab ketdim. Lekin bu qarorimning ham salbiy tomonlari chiqib qoldi: g'animlarimning o'qiga nishonga aylandim va o'zimni ulardan muhofaza qilish imkoniyatidan deyarli mahrum bo'ldim. Ba'zi pinhoniy ogohlantirishlar meni jiddiy mushohada qilishga majbur etdilar. Men vatandan chiqib ketishga qaror qildim va saroyni tark etganligim bunga qulay bahona bo'ldi. Shoh huzuriga borib, unga g'arb ilm-fani bilan tanishish istagim borligini so'zlab berdim, safarimdan uning manfaatdor bo'lishi mumkinligiga ishora qildim.

Uning marhamatiga erishdim; jo'nab ketdim va shu yo'sinda dushmanlarimning bir qurbonini o'g'irlab ketdim.

Mana Rustan, safarimning haqiqiy sababi ana shu. Isfahon nima desa deyaversin; meni faqat menga mehri borlar oldida himoya qil; dushmanlarim harakatlarimni qanday xohlasalar, shunday izohlayversinlar: men nihoyatda baxtliman, chunki ularning menga qila oladigan yagona yomonligi shugina, xolos.

Hozircha mening haqimda gapirib turishibdi. Yaqin orada meni umuman unutib yubormasmikinlar va mening do'stlarim... Yo'q, Rustan, bu g'amgin xayollarga berilmoqchi emasman: men ular uchun doimo aziz bo'lib qolaman; ularning sadoqatiga o'zimga ishongandek ishonaman.

Erzirum.
Jumodus-soniy oyining 20-kuni, 1711-y.

9-MAKTUB
HARAM OG'ASIDAN IBBIGA, ERZIRUM

Sobiq xo'jayiningning safarida unga hamrohsan; viloyatlar va mamlakatlarni aylanasan; iztiroblar senga ta'sir qilolmaydi: har lahzada yangi-yangi narsalarni ko'rasan; sen ko'rayotgan har bir yangi narsa seni ovuntiradi va vaqtning o'tishini sezmaysan ham.

Mening sharoitim boshqacha: mudhish bir qamoqxonaga qamalganman, atrofimni bir xil jihozlar o'rab turadi va bir xil iztiroblar menga azob beradi. G'am-tashvishlar bilan o'tgan ellik yoshim yuki ostida to'lg'onaman va uzoq umrim davomida biror yorug' kun yoki biror osudali daqiqa bo'ldi deb aytolmayman.

Birinchi xo'jayinim zavjalarini ishonib topshirishdek og'ir jazoni qo'llaganida, va'dalar-u ming xil do'q-po'pi-

sa bilan erkaklik sha'nimdan judo bo'lishga majbur qilganida: mashaqqatli xizmatlarni bajaraverishdan holdan toygan bo'lganimdan ehtiroslarimni halovat va boylikka almashtiryapman deb o'ylagan edim. Peshonam sho'r ekan. Qo'limga nimalar kirishini o'ylabman-u, nimadan mahrum bo'layotganimni xayolimga keltirmabman: ehtiroslarni qondirish imkoniyatidan mahrum bo'lish meni ulardan butkul ozod qiladi deb xayol qilibman. Afsus! Menda ehtiroslarning sababi emas, oqibati so'ngan bo'lib chiqdi, binobarin ehtiroslardan xalos bo'lish o'rniga ularni to'xtovsiz larzaga soluvchi narsalar orasiga tushib qoldim. Men haramga kirdim; u yerdagi hamma narsa menga nimadan mahrum bo'lganimni eslatib turardi: har bir lahza istaklarimni junbushga keltirar, maftunkor chehralar meni tahqirlash uchungina o'zlarini namoyon qilayotgandek edilar. Qarshimda mudom baxtidan mamnun erkakni ko'rish iztiroblarimning cho'qqisi edi. Ana shu iztirobli yillar mobaynida har safar biron bir ayolni xo'jayinimning yotog'iga kuzatib qo'yib xonamga qaytar ekanman, qalbim qahru-g'azab bilan to'lib toshar, ruhimni tushkunlik qamrab olardi.

Sho'rlik yoshligim mana shunday o'tgan. O'zimdan boshqa suhbatdoshim bo'lmagan; anduh va iztiroblarni o'zim yengishimga to'g'ri kelardi; aslida zavq bilan qarashim kerak bo'lgan ayollarga qahr-g'azab bilan nigoh tashlardim. Ichki hissiyotlarimning oshkor bo'lishlari meni tamom qilgan bo'lardi. Qolaversa, ayollarga buning issiq-sovuq yeri yo'q edi.

Esimda, bir kuni bir mahliqoni hammomga kuzatayotib shunday hayajonlanib ketdimki, es-hushimni yo'qotib qo'ydim va qo'limni uning nozik joyiga yuborishga jur'at

TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANI
№ 2025/N8-29
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

etdim. O'zimga kelgach, kunim bitganligini angladim. Biroq baxt menga kulib boqdi, dahshatli jazodan qutulib qoldim. Mening ojizligimning guvohi bo'lgan go'zal bu sirni menga juda qimmatga sotdi: ayolning ustidan o'z hukmimni butunlay yo'qotdim va u meni shunday iltifotlar qilishga majbur qildiki, hayotim ming martalab xavf ostida qolgan vaqtlar bo'ldi.

Nihoyat yoshlik olovi ham so'ndi; endi qaridim va ehtiroslar borasida xotirjamman; xotinlarga befarq qarayman, ularning menga nisbatan nafratlari va bergan azoblarini ortig'i bilan qaytarmoqdaman. Shu narsani doimo yodda tutamanki, men ularga buyruq berish uchun tug'ilganman, hozir ham ularga buyruq berayotganimda, nazarimda, yana erkakka aylanayotganga o'xshayman. Ularga sovuqqonlik bilan qaray boshlagan va aqlim ularning barcha zaifliklarini aniq ko'ra boshlagan paytdan boshlab hammalaridan nafratlanaman. Ayollarni boshqa odam uchun ehtiyot qilsamda, ularning mening irodamga itoat qilishlari lozim ekanligini anglash menga pinhoniy huzur bag'ishlaydi: ularni turli a'zoblarga mahkum qilar ekanman, buni o'zim uchun qilayotgandek bo'laman va bundan bilvosita qoniqish hosil qilaman. Haramda o'zimni menga tobe kichik bir saltanatda yurganday bo'laman va izzat-nafsim — u menda qolgan so'nggi hissiyot — bir oz orom oladi. Hamma narsaning menga bog'liqligi va o'zimni har daqiqada kerak ekanligimni ko'rish menga mamnuniyat baxsh etadi. Bu xotinlarning yoppasiga nafratini bajonidil qabul qilaman: bu nafrat meni o'z vazifamda ustuvor bo'lishga da'vat etadi. Men esam qarz bo'lib qolmayman: ayollar meni barcha ko'ngilxushliklariga, hatto, eng ma'sum ermaklariga to'siq deb biladilar. Hamma vaqt ularning oldilarida yengib

bo‘lmas to‘siq sifatida paydo bo‘laman: ular rejalar tuzadilar, men esam vayron qilaman. Mening qurolim — rad etish; bo‘lar-bo‘lmasga achchiqlanaman; og‘zimdan nuqul burch, yaxshi xislatlar, sharm-hayo, kamtarinlik haqidagi so‘zlar chiqadi. Ayol jinsining zaifligi, xo‘jayinning qudrati haqida tinimsiz gapiraverib, chorasiz ahvolga solaman. So‘ngra, qattiqqo‘l bo‘lishga majbur ekanligim to‘g‘risidagi gapni to‘qiyman, o‘zimni ularga o‘ta mehribondek, go‘yo ularning foydasidan o‘zga maqsadim yo‘qdek qilib ko‘rsataman.

Albatta, menda ham talaygina ko‘ngilsizliklar bo‘lib turadi, qasosga tashna xotinlar bo‘lsa, kundan-kunga ustomon bo‘lib boradilar, menga men qilgandan ortiqroq yomonliklar qilishga harakat qiladilar. Ular qaqshatqich zarbalar berishga qodirlar. O‘rtamizda hukm o‘tkazish va bo‘ysunishning kuchayishi va susayishi holatlari bo‘lib turadi. Eng haqoratomuz yumushlarni ham mening gardanimga yuklaydilar; ayollar menga beqiyos nafrat bilan qaraydilar, keksayib qolganligim bilan hisoblashmasdan, arzimagan xizmat uchun kechasi meni o‘n martalab o‘rnimdan turg‘azishadi. Buyruqlar, topshiriqlar, yumushlar, injiqliklar yomg‘irdek yog‘ilib turadi: gardanimga biron xizmatni yuklash uchun xotinlar o‘zaro til biriktiradilar, bir tantiqlik ikkinchisi bilan almashinadi. Ular tez-tez mendan yangi-yangi xizmatlarni talab qiladilar va bundan zavq oladilar; ular odamlarni menga soxta ma’lumot berishga o‘rgatadilar: goho haram atrofida yosh yigit paydo bo‘lib qolganini, goho qandaydir tovush eshitilganini yoki biron kishiga xat bermoqchi bo‘lganlarini xabar qiladilar. Bularning barchasi meni tashvishlantiradi, ular esa mening tashvishlanishimdan kuladilar; o‘zimni o‘zim qiynayotganimni

ko'rib xursand bo'ladilar. Ba'zan eshik yonidan ketkazmay qo'yishadi va u yerda mixlangandek o'tiraveraman; ustalik bilan o'zlarini kasallikka soladilar, esi oqqan yoki qo'rqqanlikka soladilar; meni istagan ko'ylariga solish uchun bahona istagancha topiladi. Bunday hollarda ko'r-ko'rona itoat ko'rsatish va xizmatga hozir turish kerak: men kabi bir kishining og'zidan rad javobini eshitish quloq eshitib, ko'z ko'rmagan voqea bo'lib, mabodo bunday xatoga yo'l qo'ysam, meni jazolash uchun bahona bo'ladi. Bunday xo'rlikdan ko'ra, azizim Ibbi, o'limni afzal ko'raman.

Bu hali hammasi emas: men bir lahza bo'lsin, xo'jayinimning marhamatiga sazovor bo'la olishimga ishonmayman, negaki uning qalbiga yaqin bo'lgan va menga yomonlik istovchi g'animlar juda ko'p. Ularning ixtiyorida shunday daqiqalar bo'ladiki, menga quloq solmay qo'yadilar, shunday lahzalar bo'ladiki, ularga hech narsa rad qilinmaydi, shunday onlar bo'ladiki, men doim nohaq bo'laman. Xo'jayinning to'shagiga g'azabnok xotinlarni boshlab boraman: ularni mening foydamga harakat qiladilar yoki bo'lmasa imkoniyatlarimni cheksiz deb o'ylaysanmi? Ularning ko'z yoshlaridan, xo'rsinishlaridan, og'ushlaridan va hatto halovatlaridan ham men har narsani kutishim mumkin: zero, ular zafar quchadigan joydalar. Ularning nazokati men uchun xavfli; shu ondagi ularning xizmati mening o'tmishdagi barcha xizmatlarimni bir lahzadayoq yo'qqa chiqaradi va o'sha onda ixtiyori o'zida bo'lmagan xo'jayin uchun hech narsa kafil bo'lolmaydi. Necha marotaba marhamatga musharraf holda uyquga ketib, g'azabga duchor holda o'rnimdan turganman! Haram atrofida sharmandalarcha qamchin bilan savalangan kunlarimda qo'limdan hech narsa kelmagan. O'shanda ayollar-

dan birini xo'jayinning og'ushida qoldirgan edim. Sohibda istak uyg'ongach, makkora ko'z yosh to'kib, mendan shikoyat qilibdi va bu ishni shunday ustalik bilan qiladiki, u uyg'otgan ehtiros jo'sh urgan sari shikoyat ham kuchliroq ta'sir qila boshlabdi. Bunday mushkul lahzalarda o'zimni qanday qilib ham himoya qilardim? Sira kutilmagan lahzada qahru-g'azabga duchor bo'ldim. Muhabbat fitnasi va oh-vohlar shartnomasining qurboniga aylandim. Umrimni ana shunday shafqatsiz ahvolda kechirib kelmoqdaman, azizim Ibbi.

Sen naqadar baxtiyorsan! Tashvishlaring faqat O'zbek bilan chegaralanadi, xolos. Uning ko'nglini osongina topa olasan va umringning oxirigacha muruvvatidan bahramand bo'lishing mumkin.

Isfahon.
Safar oyining so'nggi kuni, 1711-y.

10-MAKTUB
MIRZADAN O'ZBEKKA, ERZIRUM

Yolg'iz sengina menga Rikaning yo'qligini bildirmasliging hamda yolg'iz Rikagina yo'qligingda meni yupantirishi mumkin edi. Seni sog'inyapmiz O'zbek: jamiyatimizning joni-dili eding. Qalblar va dillar mushtarakligini parchalab tashlash uchun qanchalar shafqatsiz bo'lish kerak!

Biz bu yerda ko'p tortishamiz; munozaralarimiz odatda odob-axloq xususida bo'ladi. Kuni kecha insonni baxtli qiladigan omil aysh-ishrat bag'ishlaydigan jismoniy lazzatmi yoki ezgu ishlar qilishmi degan mavzuda bahslashdik. Sendan inson saxovatli bo'lish uchun dunyoga keladi va

adolat ham tiriklik singari unga xos sifatdir, degan gaplarni ko‘p eshitganman. Bu gaplaring bilan nima demoqchi bo‘lganingni tushuntirib bersang.

Men mullalar bilan gaplashdim; ular Qur’oni karimdan misollar keltirish bilan cheklandilar, holbuki, ularga tom ma’nodagi dindor sifatida emas, oddiy bir inson, fuqaro, oila boshlig‘i sifatida murojaat qilgandim.

Isfahon.
Safar oyining syngti kuni, 1711- y.

11-MAKTUB
O‘ZBEKDAN MIRZAGA, ISFAHON

Shuurimga murojaat qilish uchun o‘zingnikini rad qilmoqdasan; mendan maslahat so‘rash darajasiga borib yetibsan; senga saboq bera oladi, deb o‘ylaysan. Qadrdonim Mirza! Men haqimda yaxshi fikrda ekanligingdan ko‘ra do‘stona munosabatingni ko‘proq qadrlayman.

Iltimosingni ado etish uchun o‘ta mavhum mushohadalarga murojaat qilib o‘tirmoqchi emasman; shunday haqiqatlar borki, ularga ishonish kamlik qiladi, ularni his qilish lozim. Axloq-odob ham shunday haqiqatlar qatoriga kiradilar. Moziydan olingan ushbu lavhaning maza-bemaza falsafadan ko‘ra ko‘proq senga nafi tegar.

Bir vaqtlar Arabistonda troglodit lar deb ataluvchi kichkina qabila bo‘lgan; bu qabilaning odamlari, muarrixlarga ishonadigan bo‘lsak, odamdan ko‘ra ko‘proq hayvonlarga o‘xshab ketganlar. Ular xunuk — badbashara bo‘lmaganlar: ayiq singari jun bilan ham qoplanmaganlar, irillamaganlar; ko‘zlari ikkita bo‘lgan, lekin shunchalar badjahl va

vahshiy bo‘lganlarki, oralarida hech qanday adolat va haqiqat tamoyiliga joy qolmagan.

Trogloditlarni bir zamonlarda kelib chiqishi ajnabiy bo‘lgan qirol boshqargan; u qabila a’zolaridagi badfe’llikni yo‘qotish niyatida xiyla qattiqqo‘llik bilan siyosat yurgizgan; biroq fitna uyushtirib, qirolni o‘ldirdilar va butun oilasini qirib tashlaganlar.

Fitnadan so‘ng trogloditlar hukumat saylash uchun yig‘ildilar va ko‘p tortishuvlardan keyin qozilik lavozimini ta’sis etdilar. Biroq ko‘p o‘tmay, chiday olmasdan o‘zlari saylagan qozilarni ham mahv etdilar.

Yangi istibdoddan qutulgan xalq endi o‘zining yovvoyi tabiatiga quloq osdi; hammalari bundan buyon hech kimga itoat qilmaslikka, o‘zga bilan ishi bo‘lmay, faqat o‘z foydasini ko‘zlashga kelishdilar.

Yakdillik bilan qabul qilingan bu qaror barcha trogloditlarga ma’qul tushdi. Ularning har biri: menga daxli yo‘q odamlar uchun o‘lib-tirilib ishlash menga zarurmi? Faqat o‘zimni o‘ylayman, baxtli hayot kechiraman. Boshqalar baxtiyor bo‘ladilarmi-yo‘qmi, necha pullik ishim bor? o‘zimning barcha ehtiyojlarimni qondiraman; muhimi — barcha zaruriy narsalar o‘zimda bo‘lsin, boshqa trogloditlarning qashshoqligi mening ishim emas, — der edi.

Yerga urug‘ qadash oyi keldi. Har kim: yolg‘iz o‘zimni to‘yg‘azishga yetarli bo‘lgan g‘alla unadigan yerga ishlov bersam bas; boshqasi men uchun befoyda; bekorga mehnat qilib nima qilaman, — degan xayolda edi. Bu mitti podshohlikning yerlari bir xil emasdi: u yerda hosilsiz va tog‘li maydonlar, ko‘pgina irmoqlardan suv ichuvchi vodiylar bor edi. O‘sha yili qattiq qurg‘oqchilik bo‘ldi; shu sababli adirlarda joylashgan yerlar umuman g‘alla berma-

di, sug‘oriladigan maydonlarda esa hosil mo‘l bo‘ldi. Shu boisdan tog‘li aholining deyarli hammasi, qabiladoshlari toshbag‘irlik qilib, hosilni ular bilan baham ko‘rmaganliklari uchun ochlikdan qirilib ketdi.

Kelasi yili juda seryomg‘ir keldi; baland joylardagi yerlar favqulodda mo‘l hosil berdi, pastlikdagi yerlar esa, suv ostida qolib ketdi. Xalqning yarmi yana ochlikdan ohufig‘on ko‘tardi, ammo sho‘ring qurg‘urlar o‘zlari namoyon qilgandek toshyuraklikka duch keldilar.

E’tiborli kishilardan birining juda go‘zal xotini bor edi; qo‘shnisi bu ayolga oshiq bo‘lib qoldi va uni o‘girladi. Katta janjal sodir bo‘ldi; anchagina so‘kishish va mushtlashishlardan so‘ng, nihoyat, mubohasani hal qilishni Respublika davrida obro‘-e’tibori bo‘lgan bir troglоditning ixtiyoriga topshirishga rozi bo‘ldilar. Ular troglоditning qoshiga borib da’volarini bayon qildilar. “Ayol senikimi, unikimi? — Menga aslo qizig‘i yo‘q. Men yerimni haydashim kerak. Vaqtimni o‘z tashvishlarimni qo‘yib, sizlarning ixtiloflaringizni bartaraf qilishga sarflamayman-ku, axir! Meni tinch qo‘yinglar va g‘alvangiz bilan meni boshqa ovora qilmanglar”, — dedi troglodit. Ushbu so‘zlar bilan ularni tark etdi va o‘z yerini haydashga ketdi. Ancha kuchliroq bo‘lgan olibqochar o‘lsam o‘lamanki, bu ayolni qaytarib bermayman, deb ahd qildi; qo‘shnisining adolatsizligi va qozining shafqatsizligidan darg‘azab bo‘lgan ikkinchisi esa, noumid bo‘lib uyiga qaytdi; yo‘lda buloqdan qaytib kelayotgan yosh va go‘zal juvonni uchratib qoldi. U endi xotinsiz edi; juvon unga yoqib qoldi, juvonning hozirgina qozilik da’vosini qilgan va iztiroblariga sherik bo‘lishni xohlamagan o‘sha odamning xotini ekanligini bilgach, uni ko‘proq yoqtirib qoldi. U ayolni o‘g‘irladi va uyiga keltirdi.

Bir odamning yaxshigina serhosil yeri bo'lib, unga tirishqoqlik bilan ishlov berardi. Ikkita qo'shnisi til biriktirib, uni uyidan haydadilar, yerini egallab oldilar; ular bu yerni bosib olmoqchi bo'lganlarga qarshi ittifoq tuzdilar; haqiqatan ham, ushbu ittifoq tufayli ular bir necha oy davomida turli hamlalarga bardosh berdilar. Biroq ikkalovidan biriga, bittasiniki bo'lishi mumkin bo'lgan narsani baham ko'rish joniga tekkach, biri ikkinchisini o'ldirdi va yerning yagona sohibi bo'lib oldi. Uning hokimligi uzoqqa cho'zilmadi: ikkita boshqa troglodit unga hujum qildi, troglodit ulardan o'zini himoya qilishga ojizlik qildi va qurbon bo'ldi.

Deyarli yalang'och bir troglodit sotuvga qo'yilgan junni ko'rib qolib, narxini so'radi. — To'g'ri, ikki me'yor g'alla sotib olish uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha pulga sotishim mumkin; lekin sakkiz me'yor g'alla sotib olish uchun to'rt baravar qimmat sotaman, — deb xayol qildi sotuvchi. Xaridor rozi bo'ldi va talab qilingan pulni to'ladi. — Yaxshi, — dedi junni pullagan savdogar, — ana endi g'allali bo'laman. — Nima deding, — dedi xaridor. — Senga don kerakmi? Menda sotiladigan don bor. Lekin faqat narxi seni ajablantirishi mumkin: g'alla hozir favqulodda qimmat va deyarli hamma yerda ochlik hukm surmoqda. Pullarimni qaytarib ber va men senga bir me'yor g'alla beraman: aks holda ochlikdan o'lsang ham senga don sotmayman.

Bu paytda dahshatli bir kasallik mamlakatni xarob qilmoqda edi. U yerga qo'shni mamlakatdan mohir bir tabib keldi va dori-darmonlarni shunchalar o'z o'rnida ishlatdiki, unga murojaat qilgan har bir bemor shifo topdi. Kasallik chekingach, u davolagan kishilarning oldiga borib, tabobat

haqini so‘radi; hamma yerda rad javobini oldi; uzoq yo‘l azobidan horib-charchab vataniga qaytdi. Lekin ko‘p o‘tmay, kasallik yana tarqalganini va ko‘rnamak yurtni avvalgidan ziyodroq g‘orat qilayotganini eshitib qoldi. Bu safar tabibning kelishini kutib o‘tirmasdan, odamlarning o‘zlari uning huzuriga keldilar. — Jo‘nab qoling, g‘irromlar, — dedi u, — qalblaringizda siz davosini topmoqchi bo‘lgan kasallikdan ko‘ra halokatliroq zahri qotil bor; sizning ro‘yi zaminda yashashga haqqingiz yo‘q, illo, sizda insoniylik yo‘q va adolat qoidalari siz uchun begona. Haqli ravishda sizga yuborilayotgan qahru-g‘azabga monelik qiladigan bo‘lsam, Yaratgan Egamni haqorat qilgan bo‘laman.

Erzirum.
Jumodus-soniy oyining 3-kuni, 1711-y.

12-MAKTUB
O‘ZBEKDAN YANA MIRZAGA, ISFAHON

Azizim Mirza! Troglodıtlarning o‘z yomonliklari tufayli qirilib ketganlari va badfe’lliklari sababli halok bo‘lganlarini ko‘rding. Shuncha oiladan faqat ikkitasi xalq boshiga tushgan qismatdan omon qoldi. Bu mamlakatda ikki g‘ayrioddiy inson bo‘lib, ular adolatga amal qilar va ezgulikni ardoqlardilar. O‘zlarining to‘g‘ri ko‘ngil ekanliklari va ayni paytda qabiladoshlaridagi fosiqlik ularni ittifoq bo‘lishga chaqirgan; umumiy tanazzul hamdardlik hislarini uyg‘otgan va ularning o‘rtalaridagi ahillikning yanada mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘lgandi. Do‘stlar umumiy manfaat yo‘lida ahillik bilan ter to‘kardilar; o‘rtalarida samimiy va beozor do‘stlik yuzaga keltiradigan bezarar

bahslardan o'zga kelishmovchilik bo'lmasdi; ular o'zlarining xatti-harakatlaridan ijirg'anuvchi qabiladoshlaridan uzoqda, holi bir joyda baxtli va osuda hayot kechirardilar: ushbu saxovatli qo'llar ishlov berayotgan yer go'yo o'z-o'zidan hosil berayotgandek edi.

Do'stlar xotinlarini sevishar va ayollar ham erlariga muhabbat qo'ygandilar. Ular butun diqqat-e'tiborlarini farzandlarini oliyjanob qilib tarbiyalashga qaratgandilar. Ular qabiladoshlarining kulfatlari haqida farzandlariga so'zlashdan charchamas, ushbu achinarli voqeani ularga misol qilib keltirar, ayniqsa, alohida shaxslarning baxti umumning baxtida ekanligi, umumning manfaatlaridan yuz o'girish — o'ziga o'lim tilash bilan barobarligi, ezgulikning insonga ortiqcha yuk emasligi, unga mashaqqat deb qaramaslik lozimligi va boshqalarga nisbatan adolatli bo'lish o'z-o'zimizga ko'rsatayotgan marhamat ekanligini uqtirardilar.

Himmati baland otalar uchun mukofot o'zini uzoq kuttirmadi: farzandlar otalariga o'xshadilar. Ularning ko'z o'ngida ulg'aygan yangi avlod baxtli nikohlar nihoyasida ko'payib bordi: tug'ilish ko'paydi, ahillikka putur yetmadi, odamlarning ko'payishi bilan ezgulik sira ham susaymadi, bilaks, ko'plab amallar natijasida yanada mustahkamlandi.

Trogloditlarni bu qadar baxtli bo'lib ketadilar deb kim o'ylabdi deysiz? Bunchalar adolatparvar xalqqa Yaratganning nazari tushmay qolmadi. U trogloditlarni Haqdan qo'rqishga o'rgatdi; din ularning fe'l-atvorlaridagi tabiat ato etgan qo'polliklarni xiylagina yumshatdi.

Trogloditlar diniy bayramlarni nishonlay boshladilar. Gullar bilan bezangan qizlar va yigitlar Yaratganni raqslar va yallalar bilan sharaflardilar; so'ngra ziyofatlar berilar,

ularda kamtarona shod-xurramlik hukm surardi. Aynan shunday yig'inlarda tabiatning samimiy tovushi eshitilar: shu yerda odamlar sevish va sevilishni o'rganar, shu yerda qizlik ibosi, qizarinib, beixtiyor iqror bo'lar, ammo u tez fursatda otalarning roziligi bilan tasdiqlanar hamda shu yerda mushfiq onalar shirin va vafoli nikohni ko'z o'ngilariga keltirib shodon bo'lardilar.

Xudodan marhamat iltijo qilmoq uchun odamlar ibodatxonaga borardilar; ular o'zlari uchun boylik ham, qimmatga tushadigan to'kin-sochinlik ham so'ramasdilar: bunday istaklar baxtli trogloditlar uchun nomunosib edi; ular bunday tilaklarni qabiladoshlari uchungina tilardilar. Ular otalariga sihat-salomatlik, birodarlariga totuvlik, xotinlariga mehr, farzandlariga muhabbat va oqibat ato etishni so'rab mehrob poyiga borardilar. Qizlar esa u yerda o'zlarining nozik qalblarini ifoda etish, xudodan yagona marhamat — biron-bir trogloditni baxtiyor qilish imkoniyatini so'rardilar.

Kechqurunlari poda yaylovdan qaytgach va horigan ho'kizlar temir omochlarni uyga sudrab kelgach, troglo-ditlar jam bo'lishar va kamtarona dasturxon atrofida birinchi trogloditlarning adolatsizliklari va musibatlari, yangi xalq bilan qayta tug'ilayotgan ezgulik va baxtiyor hayotni kuylardilar. Ular Yaratganning ulug'ligi, uning o'ziga iltijo qiluvchilarga marhamatli ekani, xudodan qo'rqmaydiganlarga, muqarrar g'azabini madh etardilar; so'ngra, qishloq hayotining go'zalliklari va begunohlik bilan sayqal topgan inson baxt-saodatini kuylardilar. Horigach, ular tezda uyquga ketardilar, hech qanday tashvish va qayg'u-alamlar ularni bezovta qilmasdi.

Ularning ehtiyojlari va xohish-istaklarini tabiat to'liq

qondirardi. Tolei baland bu mamlakat uchun ochko'zlik begona edi: bu yerliklar doim bir-birlariga sovg'alar ulashishar va tuhfa qilgan kishi o'zini yutgan deb hisoblardi. Trogloditlar qabilasi o'zini yagona oila kabi his etardi: doimo podalar bir-birlari bilan aralashib ketar va ularni ajratish qabila a'zolari uchun yagona qiyinchilik edi.

Erzirum.
Jumodus-soniy oyining 6-kuni, 1711-y.

13-MAKTUB
O'ZBEKDAN YANA MIRZAGA

Trogloditlarning fazilatlari to'g'risida senga hali ko'p gapirishim mumkin. Ulardan biri: "Otam ertaga yer haydashi kerak; undan ikki soat oldin turaman va u dalaga borganda yer haydalgan bo'ladi", — desa, yana boshqa biri: "Singlim qarindoshlarimdan biriga ko'ngil qo'yganga o'xshaydi; otam bilan gaplashib, yoshlarni nikohlab qo'yishga ko'ndirishim kerak", — deb xayol qilardi.

Uchinchi trogloditning o'g'irlab ketganlarini aytishsa, u: "Men juda afsusdaman, chunki podamda oppoqqina buzoq bo'lib, men uni xudo yo'liga qurbon qilmoqchi edim", – derdi.

"Ibodatxonaga borib, otamning eng sevimli o'g'li va men juda e'zozlaydigan akamning shifo topgani uchun xudoga shukronalar aytishim kerak", yoxud: "Otamning dalasi bilan qo'shni dalada dehqonlar uzzukun quyoshning jazirama nurlari ostida mehnat qiladilar; u yerga borib, ikkita daraxt o'tqazishim kerak, toki bu bechoralar har zamon, har zamonda ularning soyasida hordiq chiqarsinlar", degan gaplar ham quloqqa chalinib turardi.

Trogloditlarning yig'inlaridan birida bir qariya o'spirin bir yigitni nomaqbul ish qilganlikda gumon qildi va unga tanbeh berdi. "Uning bunday jinoyat sodir qilganligiga ishonmaymiz, — deyishdi yosh trogloditlar, — bordiyu, haqiqatan ham shunday qilgan bo'lsa, ajal uni oila a'zolari ichida eng oxirida tanlasin!"

Bir odam trogloditning oldiga kelib, begonalar uning uyini talon-toroj qilganliklari va hamma narsalarini olib ketganliklarini aytdi. "Ular adolatsiz bo'lmaganlarida edi, — javob berdi troglodit, — o'g'irlagan narsalari buyursin va uzoq xizmat qilsin, deb xudodan tilagan bo'lardim".

Ushbu farovon hayot va mo'l-ko'lchilikka hasad ko'zi bilan qaraydiganlar ham yo'q emasdi; qo'shni qabilalar til biriktirib, arzimagan bahona bilan trogloditlarning mollarini haydab ketishga qaror qildilar. Bundan xabar topgan trogloditlar qo'shni xalqlarning huzuriga o'z elchilarini jo'natdilar. Trogloditlar sizlarga nima qildi? Xotinlaringizni o'g'irladilarmi, podangizni haydab ketdilarmi, qishloqlaringizni xonavayron qildilarmi? — deyishdi elchilar. Yo'q, biz adolatparvar kishilarmiz va xudodan qo'rqamiz. Bizdan nima istaysizlar? Kiyim-kechak tikish uchun jun kerakmi? Mollarimizning suti yoki yerlarimizning mevalarini tatib ko'rishni xohlaysizmi? Qurollarni tashlang, oldimizga keling, bularning barchasini biz o'zimiz sizlarga beramiz. Ammo barcha muqaddas narsalar nomi bilan qasamyod qilamizki, yerlarimizga g'anim sifatida qadam qo'ysangiz, biz sizni adolatsiz kishilar deb hisoblaymiz va yirtqich hayvonlarga qilgandek muomalada bo'lamiz.

Bu so'zlar nafrat bilan qarshi olindi; yovvoyilar qo'llarida qurol bilan trogloditlarning yerlariga bostirib kirdilar

va trogloditlarning beozorligi ularni himoyasiz qilib qo'yadi, deb xayol qildilar.

Vaholanki, trogloditlar mudofaaga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan edilar. Ayollar va bolalarni o'rtalariga oldilar. Ularni dushmanning soni emas, balki adolatsizligi hayratga solgandi. Trogloditlarning qalbida yangi g'ayrat-jasorat jo'sh urdi: birovi otasi uchun, boshqasi xotini va bolalari uchun, bunisi birodarlari uchun, unisi esa do'stlari uchun, barcha esa, troglodit xalqi uchun jon berishga tayyor edi. Halok bo'lganning o'rnini zudlik bilan boshqasi egallar va u ham umumiy maqsad uchun, ham halok bo'lganning qasosini olish uchun jang qilardi.

Adolatsizlik va Ezgulik o'rtasidagi jang ana shunday bo'ldi; faqat o'lja axtargan bu ifloslar juftakni rostlab qolishdan uyalmadilar; trogloditlarning fazilatlaridan ta'sirlanmagan bo'lsalar-da, ezgulikka taslim bo'ldilar.

Erzirum.
Jumodus-soniy oyining 9-kuni, 1711-y.

14-MAKTUB
O'ZBEKDAN YANA MIRZAGA

Qabila a'zolarining soni kundan kunga oshib borganidan trogloditlar o'zlariga podshoh saylaydigan fursat yetdi, degan fikrga keldilar. Tojni eng adolatli kishining boshiga kiygizishga qaror qildilar va ularning nazari yoshi va saxovatli ishlari bilan hurmatga sazovor bo'lgan bir qariyaga tushdi. Qariya bu anjumanda ishtirok etishni xohlamadi, yuragi siqilgan holda uyiga qaytdi.

Qariyaning uyiga elchilar jo'natib, uni shohlikka tanlaganliklarini aytganlarida u: "Orangizda mendan ko'-

ra adolatliroq kishi yo‘q deb noto‘g‘ri gapirsam, xudoga maqbul bo‘lmas! Menga toj kiygizmoqchisizlar va, mabodo, qattiq turib olsalaringiz, uni qabul qilishimga to‘g‘ri keladi. Biroq shuni unutmangki, ozod tug‘ilgan troglo-ditlarni tobe bo‘lishlarini ko‘rish iztirobi meni o‘ldiradi. Shu so‘zlarni aytib, u yum-yum yig‘ladi. “La’natlar bo‘lsin bunday kunga! — deb hayqirdi mo‘ysafid troglodit, nega men bunchalar uzoq yashadim? So‘ngra darg‘azab bir ohangda: “Ey, trogloditlar, gapning nimada ekanligini tu-shunib turibman! Ezgulik sizlarga ortiqcha yuk bo‘lib tu-yila boshlaganga o‘xshaydi. Hozirgi boshliqsiz ahvolingiz-da, xohlaysizmi-yo‘qmi, ezgulik sohiblari bo‘lishingizga to‘g‘ri keladi: aks holda yashay olmaysizlar va boshingizga ota-bobolaringizning boshiga tushgan falokatlar tushishi mumkin. Ammo ushbu majburiyat sizga o‘ta og‘ir bo‘lib ko‘rinmoqda; o‘zingizning urf-odatlaringizga qaraganda bir muncha yumshoqroq bo‘lgan hukmdor va uning qo-nunlariga bo‘ysunishni afzal ko‘rmoqdasiz. Illo, o‘shanda izzat-nafslaringizni qondira olishga, boylik orttirishga va manfur hoyu-havasga berila olishingizga ko‘zlaringiz ye-tadi hamda katta jinoyatlar qilish darajasiga bormasangiz ham, har holda ezgulikka muhtoj bo‘lmaysizlar”. U bir lahza jim qoldi, keyin avvalgidan ham ko‘ra ko‘proq ko‘z yoshlari to‘kdi. “Xo‘sh, fikrlaringizcha nima qilishim ke-rak? Qanday qilib trogloditga u yoki bu yumushni bera olaman? O‘zi shu paytgacha, mening ishtirokimsiz va faqat tabiiy da’vat ta’sirida qilib yurgan ezgu ishlarni faqat men farmon berganim uchun qilishini xohlaysizmi? Hoy, trog-loditlar, umrim poyoniga yetib bormoqda; tomirlarimda qon sovumoqda; tez orada aziz ajdodlarimiz huzurlariga

yo'l olaman. Nahotki sizlarni ezgulikdan boshqa asoratga solib keldim, deb xafa bo'lishimni xohlayotgan bo'lsangiz?"

Erzirum.
Jumodus-soniy oyining 10-kuni, 1711-y.

15-MAKTUB
HARAM OG'ASIDAN ZANJI YARONGA, ERZIRUM

Tangridan seni bu tomonlarga qaytarib yuborishini va turli xil ofatlardan ehtiyot qilishini iltijo qilaman.

Hech qachon do'stlik deb atalgan majburiyatni his qilmagan, butunlay o'z qobig'imda o'ralashib yurgan bo'lsam-da, qo'l ostimdagi qullarga nisbatan tosh- bag'ir bo'lgan bir paytimda, menda yurak ham bor ekanligini his etdirganding va men mamnuniyat bilan ulg'ayish jarayoningni kuzatganman.

Vaqti kelib xo'jamning nazari senga tushdi. Hali tabiat seni uyg'otishiga xiyla fursat qolgan bo'lsa-da, jarrohning tig'i seni erkaklikdan mahrum qildi. Mening ahvolimga tushganingni ko'rib, senga achindimmi yoxud xursand bo'ldimmi, bilmayman, aytolmayman. Ko'z yoshlaring, oh-u faryodlaringni tinchitdim. Menga sen qayta tug'ilgandek, hamisha bo'ysunish kerak bo'lgan qullikdan farmon berish mumkin bo'lgan qullik darajasiga o'tgandek tuyilding. Tarbiyang bilan shug'ullandim. Tarbiyaning ajralmas yo'ldoshi bo'lgan qattiqqo'llik uzoq vaqt davomida senga men uchun aziz ekaningni anglashga xalaqit berdi. Men uchun har holda aziz eding va hatto aytishim mum-

kinki, seni ota o‘z o‘g‘lini sevganidek sevardim, agar ota va o‘g‘il degan atamalar biz sho‘rliklarga mos kelsa.

Sen haqiqiy din nimaligini bilmaydigan nasroniylarning mamlakatlarida bo‘lasan. Harom narsalarga teginmay va makruh bo‘lmay ilojing yo‘q. Millionlab g‘animlar ichida payg‘ambar qaysi yuz bilan senga nazar soladi? Qaytganlaridan so‘ng xo‘jamning Makkaga haj qilishlarini istardim: farishtalar yurtida poklanib kelardinglar.

Isfahon.
Jumodus-soniy oyining 10-kuni, 1711-y.

16-MAKTUB
O‘ZBEKDAN UCH QABR QO‘RIQCHISI, MULLA MUHAMMAD ALIGA, QUM

Nega endi sen qabrlar orasida yashaysan, taqvodor mulla? Sen yulduzlar uzra yashash uchun yaratilgansan. Shubhasiz, Quyosh yuzini to‘sib qo‘ymay deb yashirinib olgansan. Mana bu yulduz singari senda dog‘ yo‘q; biroq u yanglig‘ sening yuzingni ham bulutlar to‘sadi.

Sening donishmandliging ummon qa’ridan ham teranroq tubsizlikdir; aqling Alining dudama Zulfiqoridan ham o‘tkirroqdir: sen samoviy kuchlarning to‘qqiz majlisida nimalar bo‘layotganidan xabardorsan; Qur’onni ilohiy payg‘ambarimizning ko‘ksida o‘qiysan; va sen uchun mavhum joylari uchrab qolsa, payg‘ambarimizning amri bilan farishta uchqur qanotlarini yozib, senga izoh berish uchun o‘z taxtidan tushadi.

Sen orqali men farishtalar bilan yaqindan aloqa bog‘lashim mumkin; zero, ey, o‘n uchinchi imom, samo va yerning uchrashuv markazi, jahannam bilan arshi a’loning

bir-biri bilan bog'lanadigan nuqtasi sen emasmisan?

Men johil kishilar orasidaman: sening ko'maging-la pokłanishga izn ber, yuzimni sen yashayotgan tabarruk joylarga burishga ijozat et; subhi sodiq kelishi bilan oq ipni qora ipdan ajratganlari kabi meni ham mal'unlardan ajratgin; o'git-nasihatlaring bilan yordam ber; qalbimni o'z himoyangga ol; uni payg'ambarlarning ruhi ila maxmur ayla, Jannat ilmi ila oziqlantir va jarohatlarini oyoqlaring ostiga tashlashimga ijozat ber. Muborak maktublaringni Erzirumga jo'nat: u yerda bir necha oy bo'laman.

Erzirum.
Jumodus-soniy oyining 11-kuni, 1711-y.

17-MAKTUB
O'ZBEKDAN YANA MULLA MUHAMMAD ALIGA

Betoqatligimni yengolmayapman, taqvodor mulla: hayratomuz javobingni kutishga sabrim chidamayapti. Shubhalar meni o'rtamoqda; ularni tarqatib yubor. Aqlim xira tortayotganini his qilmoqdaman; uni haqiqat yo'liga boshla. Yo'llarimni yorit, ey nur chashmasi; men bayon aylaydigan mushkulotlarni qalaming ila chilparchin qil; bermoqchi bo'lgan savolim uchun o'z-o'zimdan nafratlanishga va qizarishga meni majbur etma.

Nega shariatimiz bizni to'ng'iz va boshqa makruh atalmish go'shtlardan mahrum qilgan? Nega o'limtikka teginishni man qilgan va ruhimizni pok tutmoq uchun tanamizni tinimsiz yuvib turishni buyurgan? Nazarimda narsalar o'zlaricha na halol, na haromdirlar: ularning shunday bo'lmog'i uchun tabiatan ato qilingan biron-bir

xususiyatni ko'rmayapman. Loy ko'zimiz va boshqa sezuvchi a'zolarimizga salbiy ta'sir qilgani uchungina iflos bo'lib ko'rinadi, lekin o'z holicha u oltin yoki olmosdan iflosroq emas. Murdaga tegish bilan harom bo'lish fikri esa bizning o'liklarga nisbatan tabiiy jirkanishimiz bilan bog'liq. Hech qachon yuvinmaydiganlarning tanasi hid bilish a'zolarimiz va ko'zimizga yoqimsiz ta'sir qilmaganida edi, ularning pok-nopokligini bilmagan bo'lardik.

Binobarin, taqvodor mulla, poklik va nopoklikning yagona qozisi sezgilar bo'lmog'i kerak. Biroq narsalarning kishilarga bir xil ta'sir qilmasligi, bir kishida yoqimli hissiyot uyg'otgan narsa boshqalarni jirkantirishi mumkinligi shu narsadan dalolat beradiki, halol bilan haromni farqlashda har kimning ixtiyori o'zida ekanligini istisno qilsak albatta, sezgilar guvohligi yagona mezon bo'lolmaydi.

Ana shu haqiqatning o'zi, taqvodor mulla, ilohiy payg'ambarimiz tomonidan belgilangan halol va haromga ajratish haqidagi ko'rsatmalarni va farishtalarning qo'llari bilan yozilgan bosh Qonunning asosiy moddalarini inkor qilmaydimi?

Erzirum.
Jumodussoniy oyining 20-kuni, 1711-y.

18-MAKTUB
PAYG'AMBARLAR XIZMATKORI MUHAMMAD ALIDAN O'ZBEKKA, ERZIRUM

Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga ming marotalab berilgan savollarni bizga qaytarib bermoqdasiz. Ulamolar to'plagan hadisi shariflarni o'qimagan ko'rinasiz. Nega endi jamiki

donishmandlikning bu zilol sarchashmasiga murojaat qilmaysiz? Barcha shubhalaringizga javob topgan bo'lardingiz.

Badbaxtlar! Siz hamisha zamin tashvishlari bilan mashg'ulsiz va hech qachon nigohingizni samoviy ishlarga qaratmaysiz; mullalarga havasingiz keladi, biroq bu martabani qabul qilishga ham, uni qabul qilganning orqasidan ergashishga ham jur'at etmaysiz.

Betavfiqlar! Siz hech qachon abadiyatning sir-asrorlaridan voqif bo'lolmaysiz, sizdagi ma'rifat jahannam zulmatiga o'xshaydi; u jazirama Sha'bon oyida, Quyosh tikkaga kelganida, oyog'ingiz ostidan ko'tariladigan chang misolidir.

Sizlardan eng aqlliligingiz ham farosat bobida eng oddiy imom bilan tenglasholmaydi: quruq falsafangiz bo'ron va zulmatdan darak berguvchi chaqmoqqa o'xshaydi: atrofingizda dovul, siz esa telba shamollar izmidan chiqolmaysiz.

Mushkulotingizga javob bermoq oson: buning uchun sizga nasroniylar yo'ldan urmoqchi, yahudiylar sinab ko'rmoqchi bo'lgan valiy payg'ambarimiz bilan bo'lib o'tgan bir voqeani, ularning har ikkalasini ham o'sal qilganliklarini so'zlab bersam kifoya.

Yahudiy Ilyos Avesalom xudo ne sababdan cho'chqa go'shtini tanovul qilishni man etganligini so'radi. — Bu besabab ermas, — dedilar Muhammad. — Cho'chqa iflos jonivor, men buni hozir isbotlayman. U kaftida loydan odam yasadi, uni yerga itqitdi va unga "o'rningizdan turing!" deb xitob qildi. Shu zahotiyoq odam o'rnidan turdi va dedi: "Men Nuh o'g'li Yofasdurman". — O'lganingda sochlaring mana shunday oqmidi?, — so'radi undan valiy

payg'ambar. — Yo'q, javob berdi u, — vaholanki, sen meni uyqudan uyg'otganingda mahshar kuni yetib kelibdi, deb o'ylabman va shunchalik qo'rqib ketdimki, sochlarim bir-daniga oqarib ketibdi.

— Xo'sh, menga Nuh kemasi haqidagi naqlni hikoya qilib ber-chi, — dedi Rasulullo.Yofas itoat etdi va birinchi oylarda bo'lib o'tgan voqealarni batafsil so'zlab berdi; shundan so'ng davom etdi:

— Biz barcha hayvonlarning axlatini kemaning bir tomoniga yig'dik: bu uni shunchalik og'dirib yubordiki, qattiq qo'rqib ketdik, xususan, ayollar turli maqomda no-la-yu afg'on chekardilar. Otamiz Nuh xudo bilan masla-hatlashgach, xudo unga filning boshini kemaning oqqan tomoniga burib qo'yishni buyurdi. Bu ulkan jonivorning najasi shunchalik ko'p ediki, undan cho'chqa tug'ildi".

Xoh ishoning, xoh ishonmang, O'zbek, o'sha zamon-lardan beri uning go'shtidan biz o'zimizni tortganmiz va uni makruh deb hisoblaymiz.

Cho'chqa najosatlarni uzukkun kavlashtira berganidan kemada shunday bir qo'lansa hid paydo bo'ldiki, uning o'zi ham dosh berolmay, aksa urib yubordi va burnidan bir kalamush chiqib, nima to'g'ri kelsa, kemira boshladi. Nuh bardosh qilolmadi va yana Yaratgan bilan maslahatlashish-ni lozim topdi. Parvardigor sherning peshonasiga qattiq urishni buyurdi; u ham aksa urdi va burnidan bir mushuk chiqdi. Bu jonivorlarni ham harom emas deyish mumkin-midi? Siz nima deb o'ylaysiz?

Xullas, ba'zi narsalar makruhligining sababini va bosh-qa ko'pgina sabablarni ham bilmasligingizga yagona sabab Alloh, farishtalar va odamlar o'rtasida bo'lib o'tgan voqea-

lardan bexabarligingizdir. Siz abadiylik tarixini bilmaysiz; osmoni falakda yozilgan kitoblarni o'qimagansiz. Sizga ma'lum bo'lgan narsalar samoviy hikmatlarning kichik bir qismidir; biz singari, hali hayot bo'la turib sizga qaraganda ko'proq ilm olganlar ham hamon qorong'ilikdan qutulganlaricha yo'q.

Alvido, Muhammad qalbingizda bo'lsin.

Qum.
Sha'bon oyining so'nggi kuni, 1711-y.

19-MAKTUB
O'ZBEKDAN DO'STI RUSTANGA, ISFAHON

Biz To'qotda bir haftagina bo'ldik: o'ttiz besh kunlik yo'ldan keyin Smirnaga yetib keldik.

To'qot bilan Smirna orasida bironta nomini tilga olishga arzigulik shahar yo'q. Usmonlilar saltanatining zaifligi meni hayratga soldi. Ushbu majruh tanani ohista va me'yoriy muolaja emas, balki uni holdan toydiruvchi va qudratini yemiruvchi kuchli dori-darmonlar ushlab turibdilar.

O'z martabasini pul evaziga qo'lga kirituvchi hokimlar viloyatlarni xonavayron qilishni vazifa deb biladilar va ularni bosib olingan begona yurt misol talon-taroj qiladilar. Uquvsiz qo'shin hokimlarning injiqliklarini ro'yobga chiqarish bilan ovora. Istehkomlar vayron, shaharlar huvillab qolgan, qishloqlar xarobaga aylangan, yerga ishlov berish va tijorat ishlari tamoman tashlab qo'yilgan.

Ushbu shafqatsiz mamlakatda o'zboshimchalik hukmron: yerga ishlov beruvchi nasroniylar, soliq to'lovchi yahudiylar ming turli zo'ravonliklarga giriftor bo'lmoqdalar.

Yerga bo'lgan mulkchilik qonun bilan muhofaza qilinmaydi; pirovardida hosil ko'tarishga bo'lgan intilish susaygan: hokimiyat egalarining zo'ravonliklariga mone'lik qila oladigan vasiqa ham yo'q.

Ushbu yovvoyilar ilm va hunarga shu darajada befarqlarki, hatto harb ishini ham mensimay qo'yganlar. Ovrupo xalqlari kun sayin taraqqiyot yo'lidan borayotgan bir paytda, turklar ibtidoiy jaholatga botgan ko'yi yashamoqdalar; ovrupoliklarning yangi ixtirolari o'zlariga qarshi ming martalab qo'llanilgachgina, ularga qiziqib ko'rishni ep ko'radilar.

Dengizchilik ishida ularda hech qanday tajriba, hech bir boshqaruv mahorati yo'q. Aytishlaricha, bir siqim tog'lar orasidan tushib keluvchi bir hovuch nasroniylar usmonlilarni ta'qib qilib, saltanatga xavf solayotgan emish.

O'zlari tijorat ishlariga qobiliyatsiz bo'la turib, ular bilan savdo-sotiq qilish uchun kelgan, mehnatsevar va tadbirkor ovrupoliklarni deyarli yoqtirmaydilar: ovrupoliklar ularni boyitayotgan bir paytda biz bu ajnabiylarga mehr-muruvvat ko'rsatmoqdamiz, deb o'ylaydilar.

Ushbu bepoyon mamlakatni boshidan oxirigacha kesib o'tdim va shu narsaga ishonch hosil qildimki, faqatgina Smirnani boy va qudratli shahar deb atash mumkin. Uni ovrupoliklar shu darajaga yetkazganlar: boshqa shaharlarga o'xshamasligi turklarning xizmatlari emas.

Qadrdonim Rustan, ikki asr o'tar-o'tmas biron-bir istilochi zafarlar quchadigan ushbu saltanat haqidagi bor gap shu.

Smirna.
Ramazon oyining 2-kuni, 1711-y.

20-MAKTUB
O‘ZBEKDAN ZASHIGA, ISFAHON

Meni haqorat qilding, Zashi, qalbimda shunday hissiyotlar tug‘ilmoqdaki, yo‘qligimda, mabodo, hulqingni o‘zgartirmasang, meni qiynayotgan o‘tli rashkni so‘ndirmasang, ulardan qo‘rqishingga to‘g‘ri keladi.

Seni oq tanli xodim Nodir bilan yolg‘iz topganliklarini eshitdim. Munofiqligi va xoinligi uchun u boshi bilan javob beradi. Xizmatingda qora qul bo‘la turib, o‘z xonangda oq qulni qabul qilish mumkin emasligini nahotki unutgan bo‘lsang? Bichilgan qul odam emas, uning ma’lum darajada erkakka o‘xshashligi senda paydo qilishi mumkin bo‘lgan his-tuyg‘ulardan pokizaliging balandroq turishi haqida toza gapirishing mumkin. Bu gaplar senga ham, menga ham kifoya qilmaydi: senga kifoya qilmasligiga sabab haramning qonun-qoidalarini buzgansan; bu qilig‘ing seni oqlay olmasligiga sabab – o‘zgalarga yuzingni ochib, or-nomusimni toptagansan... Begonalarga yuzingni ochib dedimmi: balki uni ojiz ahvolidan tushkunlikka tushgan makkorning nadomatlari va hiylalariga aldanib ochgandirsan, u bo‘lsa, o‘zining bu jinoyati bilan or-nomusingni bulg‘agan chiqar?

Menga, balkim, senga vafodor bo‘lib kelganman, dersan. Axir, menga vafodor bo‘lmasliging mumkinmidi?! Hayot tarzingdan yoqa ushlayotgan, bichilgan habash qullarning hushyorligini qanday qilib ham aldarding? Qanday qilib seni tutqunlikda ushlab turgan eshik va qulflardan xalos bo‘larding? Erki o‘zida bo‘lmagan ezgulikni ko‘klarga ko‘tarasan, aslida esa nopok ehtiroslaring sen shunchalar maqtayotgan vafodorlik va halollikdan seni ming marotalab judo qilgan bo‘lib chiqarlar?

Men gumon qilayotgan ishlarni qilmagan bo‘lishingni, xoin senga o‘zining iflos qo‘llarini tekkizmagan bo‘lishini, uning faqat menga qarashli bo‘lgan nafis badaningga nazari tushmaganligini, liboslaring vositasida u va o‘zing o‘rtangda zaifgina bo‘lsa ham to‘siq qo‘ygan bo‘lishingni, chuqur hurmat-ehtirom ta’sirida uning o‘zi ko‘zlarini yerga tikkan va botinib shu ishni qilgani uchun bo‘lg‘usi qiynoqlardan dahshatga tushgan bo‘lishini xohlardim. Mabodo, shunday bo‘lgan taqdirda ham, sen baribir, burchingga zid ish qilgansan, shunchaki ermak uchun bu ishni qilgan bo‘lsang, yana nima ishlar qilgan bo‘larding? O‘z holingga tashlab qo‘yilganingda, o‘zingni himoya qilish uchun faqatgina menga bo‘lgan, toptalgan muhabbating va sen nomussizlarcha xiyonat qilgan burchingdan o‘zga narsa bo‘lmaganida ahvoling ne kechardi? Sen yashayotgan mamlakatning qonunlari naqadar qutlug‘ki, ular sizni iflos qullarning tajovuzlaridan himoya qiladilar! Sizlarni to‘rt devor orasida saqlayotganim uchun mendan minnatdor bo‘lishingiz kerak, ochig‘ini aytganda sizlar bunga ham loyiq emassizlar.

Haram og‘asini ko‘rishga ko‘zingiz yo‘q, negaki, u tinim bilmay xulq-atvoringizni nazorat qiladi va dono maslahatlar beradi. U shunchalar badbasharaki, yuziga qarash azob deysizlar. Bunday lavozimga chiroyli, kelishgan yigitlarning qo‘yilishini qayda ko‘rgansiz? Sizni o‘ksitadigan narsa uning o‘rnida nomusingizga tajovuz qilishga qodir oq tanli qulning yo‘qligi.

Birinchi cho‘ring senga nima yomonlik qiluvdi? U yosh Zalida bilan erkin muomala qilishing odob-axloq doirasiga kirmaydi, degandi. Unga bo‘lgan nafrating boisi ana shunda.

Zashi, aslida qattiqqo'lroq hakam bo'lsam bo'larkan; seni gunohlardan holi ko'rishni istayotgan eringman, xolos. Kenja rafiqam Roksanaga bo'lgan muhabbatim senga bo'lgan nozik tuyg'ularimga rahna solgani yo'q; go'zal husning unikidan kam emas. Mehr-muhabbatimni ikkalangiz bilan baham ko'raman. Roksanadagi ezgulik sening husningga hamohang bo'lishga yaraydi, xolos.

Smirna.
Zulhijja oyining 12-kuni, 1711-y.

21-MAKTUB
O'ZBEKDAN OQTANLI HARAM OG'ASIGA

Bu maktubni ochganing hamono titramog'ing lozim, aniqrog'i, Nodirning munofiqligini ko'rganda larzaga tushmog'ing kerak edi. Ey, sovuq va bemajol qarilikni boshidan o'tkazayotgan, muhabbatim sohiblariga ko'z qiri tashlashni gunoh deb biladigan, ularni begona nigohlardan saqlaydigan muqaddas dargohning eshigiga qadam qo'yish man etilgan kimsa, yurish-turishlari ixtiyori senga topshirilgan qullar sen qilishga aslo jur'at etmagan ishlarni qilayotganlari uchungina azobdasan va ular hamda o'zingning boshing uzra chaqnashga tayyor turgan momaqaldiroqni his qilmayapsan chog'i?

Sizlar, men qanday xohlasam, shunday majaqlab tashlaydigan jirkanch quroldan boshqa hech nima emassiz; faqat itoat tufayligina yashab yuribsiz; sizlar mening qonunlarim bilan yashash va men farmon berishim bilanoq mahv bo'lish uchun dunyoga kelgansizlar; mening baxtim, muhabbatim, hatto, rashkim uchun siz zoti pastlar kerak

ekansiz, nafas olaverasiz; alqissa, sizda itoat qilishdan o'zga chora, mening irodamdan bo'lak qalb, mening huzur-halovatimdan boshqa umid yo'q.

Xotinlarimdan ba'zilari sadoqatning shafqatsiz qonun-qoidalariga qiyinchilik bilan bardosh berayotganlaridan, barzangi qulning doimiy ravishda nazarida bo'lishdan bezor ekanliklaridan, ularni erlariga topshirish uchungina qo'yib qo'yilgan bu badburushlardan toliqqanlaridan ham xabarim bor; men bularni bilaman. Lekin seni, bu tartibsizlikka erk berayotganing uchun shunday jazoga mustahiq qilayki, ishonchimni suiste'mol qilganlarning barchasi larzaga kelsinlar.

Tangrining barcha payg'ambarlari va hazrat Alining nomi bilan qasamyod qilib aytamanki, mabodo, burchingni unutsang, sen bilan oyog'im ostiga tushgan hasharotdek muomala qilgayman.

Smirna.
Zulhijja oyining 12-kuni, 1711-y.

22-MAKTUB
YARONDAN HARAM OG'ASIGA

Haramidan uzoqlashgani sari O'zbek xotinlarini ko'p eslamoqda; oh urib, ko'z yosh chekmoqda; iztiroblari zo'rayib, shubhalari ortmoqda. U soqchilar sonini ko'paytirish niyatida. Meni o'ziga hamrohlik qilgan habashlari bilan qo'shib qaytarib yuboryapti. U endi o'zi uchun xavotirlanmaydi; u o'zidan ming barobar qimmatli vujudlar uchun xavotirda.

Shunday qilib, sen chizgan chiziqdan chiqmay va tashvishlaringni baham ko'rib yashayman. Yo Parvardigor, bir-

gina odamni baxtiyor qilish uchun qancha narsa kerak ekan-a!

Tabiat go'yo xotinlarni qaram qilib qo'ygan-u, keyin o'zi ularni qaramlikdan ozod qilgan. Huquqlar tenglashgani sababli ikkala jins orasida nifoq yuzaga kelgan. Biz ushbu munosabatlarga yangi mutanosiblik olib kirdik: ayollar bilan o'zimizning (zanjilarning demoqchi tarj.) o'rtamizga nafratni, erlar va xotinlar orasiga sevgini joylashtirdik.

Mening qovog'imdan qor yog'moqda. Qarashlarim qahrli bo'lib, lablarimni tabassum tark etgusi. Zohiran men xotirjam, qalbim esa vahimada bo'lgay. Men uchun keksalik ajinlarini ko'rish nasib etmas: o'shalarsiz ham badqovoq bo'lgayman.

Xojamga G'arbda hamroh bo'lishdan mamnun bo'lgan bo'lardim; biroq ixtiyorim uning qo'lida. U xotinlarini ehtiyot qilishimni istaydi; men ularni sadoqat bilan qo'riqlagayman. Bu jins ahli bilan qanday muomala qilishni bilaman: yengiltaklik uchun imkoniyat berilmasa, ular takabburlik yo'liga o'ta boshlaydilar; yana shuni bilamanki, ularni kamsitish qatl qilishdan mushkulroq.

Smirna.
Zulhijja oyining 12-kuni, 1711-y.

23-MAKTUB
O'ZBEKDAN DO'STI IBBONGA, SMIRNA

Qirq kun suvda suzib, Livornoga yetib keldik. Bu shahar yangi. U Toskan gersoglarining yuksak iqtidoridan guvohlik berib turibdi: ular botqoqlikdan iborat bo'lgan qishloqni Italiyaning eng gullab-yashnayotgan shahriga aylantirishgan.

Bu yerda xotinlar katta erkinlikka egalar. Ular erkaklarni jalyuza (frans. Jalousie – rashk so'zidan. – Tarj.) deb ataluvchi chiy pardalar orqasidan ko'radilar; har kuni bironta kampir hamrohligida ko'chaga chiqishlari mumkin va bir chachvon yopadilar xolos. Qaynilari, tog'alari, jiyanlari ularni ko'rishlari mumkin va erlari bundan sira xafa bo'lmaydilar.

Nasroniylar shahrini ilk bor ko'rish – Muhammad qavmi uchun katta tomosha. Men, masalan, binolarning rang-barangligi, kiyim-kechak, asosiy udumlar singari bir qarashda ko'zga tashlanadigan narsalar to'g'risida gapirmayapman; arzimagan mayda-chuydalarda ham o'ziga xoslik bor; buni his qilyapman, biroq ifodalay olmayapman.

Ertaga Marselga jo'naymiz; u yerda uzoq turmaymiz. Rika bilan niyatimiz Parijga – Yevropaning poytaxtiga borish. Sayyohlar hamma vaqt katta shaharlarga intiladilar, zero, ular barcha ajnabiylar uchun umumiy vatandir.

Omon bo'l! Senga bo'lgan muhabbatimning barqarorligiga ishonching komil bo'lsin.

Livorno.
Safar oyining 12-kuni, 1712-y.

24-MAKTUB
RIKADAN IBBONGA, SMIRNA

Mana bir oydirki biz Parijdamiz va shuncha vaqt davomida doimiy harakatdamiz. Joylashib olguncha ancha ishlarni qilish: kerakli odamlarni qidirib topish, birdaniga va baravariga yetishmay qolgan narsalarni xarid qilish kerak.

Parij ham Isfahon singari katta shahar. Bu yerda uylar shunchalik balandki, ularning yashovchilarini faqat

munajjimlardan iborat, deb xayol qilish mumkin. Havoda muallaq turgan misol bir-birining ustiga qurilgan olti-yettita uylardan iborat o'ta gavjum shaharni ko'z oldingga keltirgina; hamma odam ko'chaga chiqqanda rosa tiqilinch bo'ladi.

Balki ishonmassan: kelganimga bir oy bo'lgan bo'lsa, biron kishining bamaylixotir yurganini uchratmadim. Dunyoda hech kim fransuzlardek oyoqlaridan yaxshi foydalana olmaydi: ular yuguradilar, uchadilar. Osiyoning sekin ulovlarini, tuyalarimizning bir maromda yurishini ko'rsalar, o'zlaridan ketib qolishlari mumkin. Men bo'lsam, bunaqangi yurishga o'rganmaganman, ko'chada qadamimni o'zgartirmayman; shu boisdan, ba'zan nasroniy yanglig' g'azabim toshadi: negaki, boshdan – oyog'imgacha loy sachratishlariga har holda chidasa bo'ladi, lekin muntazam tirsaklari bilan turtib o'tishlariga aslo toqat qilolmayman. Meni quvib yetayotgan o'tkinchi turtib, gavdamni burib qo'yadi, boshqasi esa yuzma-yuz kelayotib, avvalgi holimga keltiradi; yuz qadam ham yurmasdan, o'n chaqirim bosgan odamdek holdan toyganligimni his qilaman.

Meni yevropaliklarning fe'l-atvori va rasm-rusumlari haqida batafsil gapirib bera oladi deb o'ylama; bu haqda o'zim ham yuzaki tasavvurga egaman, ixtiyorimdagi ozgina fursat ulardan hayratlanish uchun yetdi, xolos.

Fransiya qiroli Yevropaning eng qudratli hukmdoridir. Uning qo'shni Ispaniya qiroli kabi oltin konlarga ega bo'lmasa ham, undan boyroqdir; u o'z boyliklarini fuqarolarining shuhratparastligi hisobiga orttiradi, zero, oltin zaxiralarining nihoyasi bo'lsa, kalondimog'lik chegara bilmaydi. U harbiy unvonlarni sotish imkonini beradigan va shuning hisobigagina ta'minlanadigan urushlarda ishtirok

etadi yoki ularni qo'llab-quvvatlaydi; insonga xos shuhratparastlikning mo'jizasi tufayli qo'shinga maosh o'z vaqtida to'lanadi, istehkomlari mustahkam, kemalari yaxshi qurollangan turadi.

Bu qirol buyuk afsungar ham: u fuqarolarining tafakkurlariga ham hukmini o'tkaza oladi; ularni qanday xohlasa, shunday fikrlashga majbur etadi. Mabodo, xazinasida bir million ekyu bo'lsa-yu, unga ikki million kerak bo'lib qolsa, qirol bir ekyuning qiymati ikki ekyuga teng, desa, bas, fuqarolar unga ishonadilar. Bordi-yu, og'ir urush olib borishga to'g'ri kelib qolsa, lekin uning hech vaqosi bo'lmasa, qog'oz parchasini pul, deb ularning miyasiga singdirsa kifoya, ular darrov rozi bo'lishadi. Bu ham mayliya, qo'l tekkizishim bilan sizlarni barcha dardlardan forig' qilaman, deb ularni ishontiradi; tafakkur ustidan bo'lgan uning kuchi va qudrati shunchalar katta.

Bu hukmdor borasida aytganlarim seni ajablantirmasin: undan ham kuchliroq yana afsungar bor; u hukmdorning aqlini hukmdor boshqalarnikini boshqarganiga nisbatan ko'proq boshqaradi. Bu afsungarning oti Papadir (Rim papasi nazarda tutilyapti, – Tarj). U qirolni uch raqami birdan boshqa emas, yeyilayotgan non non emas, ichilayotgan sharob sharob emas, deb va shunga o'xshash boshqa minglab narsalarga ishontira oladi.

Qirolning nafasini rostlab olishga yo'l qo'ymaslik, o'ziga bo'lgan ixlosni tark ettirmaslik maqsadida, unga mashq qilib tursin uchun vaqti-vaqti bilan allaqanday diniy aqidalarni yuborib turadi. Bundan ikki yil muqaddam u qirolga Konstitutsiya deb ataluvchi katta bir maktub jo'natdi; qirol va uning fuqarolarini dahshatli jazolar bilan qo'rqitib, ushbu maktubda bitilgan narsalarga ishontirmoqchi bo'ldi.

Qirolga nisbatan u niyatiga yetdi – u zudlik bilan itoat etdi va o'z fuqarolariga ibrat bo'ldi. Lekin fuqarolardan ayrimlari bosh ko'tardilar va bu maktubda bitilgan narsalarga biz ishonmaymiz, dedilar. Isyonning harakatlantiruvchi kuchi saroyni, butun qirollik va barcha oilalarni bo'lib turuvchi ayollar edi. Bu Konstitutsiya ularga barcha nasroniylar osmondan tushgan, deb da'vo qilinadigan kitobni o'qishni man qilayotgandi: aslida gap ularning Qur'oni haqida borayotgandi (Injil nazarda tutilyapti, – Tarj). O'z jinslariga nisbatan haqoratni ko'rgan ayollar Konstitutsiyaga qarshi kurash ko'tardilar. Ular bunday sharoitda imtiyozdan voz kechgan erkaklarni o'z tomonlariga ag'darib oldilar. Har holda iqror bo'lish kerakki, nasorolarning muftiysi yomon fikr yuritmaydi; Buyuk Alining nomi ila qasam ichamanki, menimcha, u bizning muqaddas Qonunimizning asoslarini biladigan ko'rinadi. Bas, xotinlar bizga nisbatan tuban mavjudotlar ekan, bas, payg'ambarlarimiz ularni jannatga tushmaydilar, degan ekanlar, faqat jannat yo'lini ko'rsatish uchun bitilgan kitobni o'qishga boshlarini og'ritib nima qiladilar?

Qirol to'g'risida shunday oldi-qochdi gaplar eshitdimki, orasida mo'jizaga teng keladiganlari bor; shubham yo'qki, ularga ishonish sen uchun ham mushkul bo'ladi.

Aytishlaricha, o'ziga qarshi ittifoq tuzgan qo'shnilari bilan urush olib borayotgan paytda qirolning o'z yurtida ham son-sanoqsiz ko'zga ko'rinmas dushmanlari bo'lgan. Yana aytadilarki, qirol ularni o'ttiz yil mobaynida qidiribdi, uning ishonchini qozongan ayrim folbinlarning sa'y-harakatlariga qaramasdan, ulardan birontasini ham topolmagan ekan. G'animlari u bilan birga yashar emishlar: uning saroyida, poytaxtida, qo'shinlari orasida, hakamxonalarida

dushmanlari bor emish; shunga qaramay, aytishlaricha, o'limi oldidan ularni topolmasa, hasrat bilan ketarmish. Shunday taassurot tug'iladiki, umuman dushmanlar bor, lekin ularni bitta-bitta topib bo'lmaydi, ya'ni jasad bor, lekin a'zolar yo'q. Aql va qudrat bobida ustunroq g'animlarni yuborib, mag'lub bo'lgan dushmanlariga nisbatan shafqat bilmagani uchun Yaratgan uni shak-shubhasiz jazolamoqchi.

Senga hali yana yozaman va eronliklarning fe'l-atvorlari hamda xususiyatlaridan ancha uzoq bo'lgan narsalar to'g'risida hikoya qilaman. Ikkalamizni ham yagona Yer ko'tarib turibdi; biroq men hozir yashayotgan mamlakatning odamlari va eronliklar orasida juda katta farq bor.

Parij.
Robi'us-soniy oyining 4-kuni, 1712-y.

25-MAKTUB
O'ZBEKDAN IBBONGA, SMIRNA

Jiyaning Redidan maktub oldim: menga xabar berishicha, Smirnadan chiqib, Italiyani ko'rish uchun borayotganmish; bundan ko'zlangan yagona maqsad o'rganish va senga munosib bo'lish emish. Keksayganingda suyanch-g'ing bo'ladigan jiyaning borligi bilan seni tabriklayman.

Rika senga uzundan-uzun maktub yozibdi; aytishiga qaraganda, ushbu mamlakat haqida senga ko'p hikoya qilganmish. Shuurining tiniqligi unga hamma narsani tezlik bilan ilg'ab olishga imkon bermoqda. Men esa sekinroq fikr yuritaman va senga hech narsani so'zlab berolmayman.

Eng dilkash suhbatlarimizning mavzui sensan: Smirnada bizga ko'rsatgan mehmonnavozliging va har kuni